

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Yakubov Akmal

SOVET HOKIMIYATINING TURKISTONDA SOVET RESPUBLIKALARINI BARPO ETISH BO'YICHA SIYOSATI	09-21
--	-------

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

МЕЖДУ ДИПЛОМАТИЕЙ И ИМПЕРСКОЙ СТРАТЕГИЕЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ МУХАММАДА РАХИМХАНА I (1806–1825 гг.)	22-31
--	-------

Gadoyev Dadaxon Xayrulloevich

DEGGARON MASJIDINING SOVET O'LKASHUNOSLARI TOMONIDAN O'RGANILISHI	32-47
---	-------

Dadajonov Tursunboy Abdusamatovich

QO'QON XONLIGI DAVRIDA HARBIY KUCHLARNING QUROL-ASLAHALAR BILAN TA'MINLANISHI VA MODDIY BAZASINING RIVOJLANISH JARAYONI	48-53
--	-------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Umurzaqova Umida Nosirjanovna, Gafurjonov Jamshidbek Furkat o'g'li

SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI IQTISODIY-EKOLOGIK OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI BO'YICHA JAHON TAJRIBASI TAHLILI	54-58
--	-------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Yunusova Manzuraxon Pazliddinovna

O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINI FUQAROLIK JAMIYATINING MUHIM INSTITUTI SIFATIDA ISLOH ETISH JARAYONI	59-68
--	-------

Karimov Xurshid Abdumannabovich

AN'ANA VA AXLOQIY UNIVERSALIZM – FALSAFIY KOMPARATIVISTIKA KONTEKSTIDA	69-74
---	-------

Egamberdiyev Baxriddin Baxodir o'g'li

O'ZBEKISTONDA MAHALLIY ODATLAR VA MAROSIMLARNING SHAKLLANISHI VA ULARNING FALSAFIY-TARIXIY MOHIYATI.....	75-82
---	-------

Norqulov Shahzod Shuhrat o'g'li

IJTIMOIIY REKLAMA TUSHUNCHASI: MOHIYAT VA FUNKSIYALAR	83-87
---	-------

Beshimov Xamidjon Sayidovich

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA INSON QADRINI BELGILASH MEZONLARI HAMDA ZAMONAVIY JAMIYATDA INSON QADRINI TA'MINLASHDA KASABA UYUSHMALARINING ROLI.....	88-96
--	-------

Нишонов Сарвар Жасур угли

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ СМЫСЛООБРАЗУЮЩИХ КАТЕГОРИЙ СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ ЛИЧНОСТИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ХУСЕЙНА ВАИЗА КАШИФИ)..	97-105
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Uzakova Go'zal Sharipovna

SHAHARLARDA ATROF MUHIT MASALALARINI HAL ETISHDA JAMOATCHILIK
ISHTIROKINI TA'MINLASHNING HUQUQIY MASALALARI..... 106-112

Eshimbetov G'ulomjon Sultonbayevich

ICHKI ISHLAR ORGANLARINING KADRLAR BILAN ISHLASH XIZMATLARI
FAOLIYATINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI 113-122

Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich

JAZONI IJRO ETISH MUASSASASIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY
REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH TUSHUNCHASI
HAMDA IJTIMOY ZARURATI 123-132

Марданов Жасурбек Отабек угли

УГОЛОВНОЕ ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ВОВЛЕЧЕНИЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНЕГО В
АНТИСОЦИАЛЬНОЕ ПОВЕДЕНИЕ 133-138

Mamadjonov Temurali Barotjon o'g'li

FUQARONI BEDARAK YO'QOLGAN DEB TOPISH VA VAFOT ETGAN
DEB E'LOH QILISHNING AYRIM MASALALARI 139-143

Jumumbetov Rasul Jengizbayevich

GEOGRAFIK KO'RSATKICHLARDAN FOYDALANISH HUQUQIY
TA'MINLASH MUAMMOLARI 144-150

Suyunov Bobir Bahodirovich,

RAQAMLI JAMIYATDA TALON-TAROJLIK:
KIBER-XAVFLAR VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI..... 151-155

Kdirbaeva Altinay Maksetbaevna

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA XOTIN-QIZLAR XIZMAT O'TASH TARTIBINI
BELGILASHGA DOIR RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASINING ILMIY TAHLILI 156-163

Abduhoshimov Ismoil Abdug'ani o'g'li

KORRUPSION JINOYATLARNING O'ZIGA XOS TAHLILI..... 164-168

Хошимова Юлдузхон Олимжоновна

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРИЗНАНИЯ ОБЩЕИЗВЕСТНЫХ
ТОВАРНЫХ ЗНАКОВ 169-175

Abdugaffarov Davronbek Dilshod ugli

ALIGNING UZBEKISTAN'S PRIVATE INTERNATIONAL LAW WITH WTO PRINCIPLES:
THE ROLE OF CHOICE OF LAW IN GATS IMPLEMENTATION 176-180

Aripov Abid Adilovich

O'ZBEKISTONDA CHET EL FUQAROSI TUSHUNCHASI VA HUQUQIY MAQOMI..... 181-189

Tolibbayeva Malika Ulmasjon qizi

ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI:
XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI..... 190-197

Нормуродова Азиза Азимжон кизи

СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ В РЕСПУБЛИКЕ
УЗБЕКИСТАН: ОЦЕНКА ДЕЙСТВУЮЩЕГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА И ПУТИ ЕГО
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ 198-204

Abdullayeva Parvina Baxrillovna

RAQAMLI PLATFORMALAR BILAN BOG'LIQ TUSHUNCHALAR TALQINI 205-212

Nurmatov Jasur

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR

PROFILAKTIKASINING RETROSPEKTIV TAHLILI 213-222

Шадуева Сайёра Арифовна

ОСОБЕННОСТИ РАССМОТРЕНИЯ ДЕЛ О ПРИМЕНЕНИИ МЕР ПРАВОВОГО

ВОЗДЕЙСТВИЯ К СУБЪЕКТАМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА 223-233

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Bahrom Norboyevich

DARSLIK MANTLARI VA KOMPETENSIYA PARADIGMASI:

NISBAT MUNOSABAT VA O'ZARO BOG'LIKLIK ("ONA TILI DARSLIGI MISOLIDA")..... 234-241

Qurbonova Barchinoy Mirzahamdammovna

TOPOGRAFIK KARTALARGA OID TUSHUNCHALAR, ENG MUHIM SHARTLI BELGILAR

VA LANDSHAFT DIZAYNIDA ICHKI FAZOVIIY MUHIT, HAJMIY SHAKL

VA TEVARAK-ATROF 242-246

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich

QALAMTASVIRDA GEOMETRIK SHAKLLARDAN TASHKIL TOPGAN NATYURMORT

HAMDA TEXNIK VA SAN'AT FANLARINI TURLI FANLAR BILAN INTEGRATIV

HAMDA SINERGETIK O'QITISHNI NAZARIY YECHIMLARI 247-251

Temple Chimuany Odimegwu

REVIEW ON FILLER EFFECT OF VARIOUS NONREACTIVE MATERIALS

IN CONCRETE 252-265

Arustamyan Yana Yuryevna, Toshpo'latov Omonulloxon Ulmas o'g'li

O'ZBEKISTON XUSUSIY UNIVERSITETLARIDA TA'LIMNI BOSHQARISHNING

HOZIRGI HOLATI, STRATEGIK YECHIMLARI VA ISTIQBOLDAGI RIVOJLANISH

SSENARIYLARI 266-271

Berdiyeva Nilufar Berdiyeva qizi

INNOVATSION YONDASHUVNING BO'LAJAK PEDAGOG VA TARBIYACHILARNING

IJODIY KOMPETENSIYASIGA TA'SIRI 272-277

Otamuratov Maqsudbek Shonazarovich

O'ZBEKISTON OLIY TA'LIMIDA KREDIT-MODUL TIZIMINING PEDAGOGIK

ASOSLARI VA UNING TA'LIM JARAYONIGA TA'SIRI 278-283

Kurbonova Shoxsanam

TASVIRIIY SAN'AT FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILAR O'QUV-IJODIY

FAOLIYATINI INTEGRATIV RIVOJLANTIRISH METODIKASI..... 284-289

Toxirov Shaxzod Toxirovich

IJTIMOIIY INTELEKTNING TARKIBIIY QISMLARI VA UNING PEDAGOGIK

FAOLIYATDA TUTGAN O'RNI..... 290-294

Raximjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna

GLOBAL KONTEKSTLARGA MADANIYATLARARO KOMPETENSIYA

UCHUN TANQIDIY FIKRLASH 295-300

Received: 16 December 2025

Accepted: 1 January 2026

Published: 15 January 2026

Article / Original Paper

PARTICIPATION OF LAWYERS IN ECONOMIC AND CIVIL PROCEEDINGS: ANALYSIS OF FOREIGN AND NATIONAL LEGISLATION

Tolibbaeva Malika

Independent researcher at the Academy of Justice of the Republic of Uzbekistan

Abstract. This article provides a comprehensive legal analysis of the participation of lawyers in economic and civil proceedings based on a comparative study of foreign experience and the national legislation of the Republic of Uzbekistan. The research examines in detail the procedural status of lawyers, their rights and obligations, as well as their role in ensuring the protection of the rights and lawful interests of the parties. In particular, the article analyzes the practice of developed foreign countries, where the participation of lawyers in judicial proceedings is mandatory, their professional independence is guaranteed, and high professional standards are applied, and compares these approaches with the norms of national legislation. The article scientifically substantiates that the participation of lawyers in economic and civil cases is an important factor in ensuring the legality, validity, and fairness of judicial decisions. In addition, certain problems of the current legislation are identified and analyzed, including the limited scope of lawyers' powers and the недостаточность (insufficiency) of procedural guarantees for their activities. Based on the results of the study, scientifically grounded conclusions and proposals are formulated aimed at improving national legislation, expanding the procedural capabilities of lawyers, and increasing the effectiveness of judicial protection.

Keywords: attorney, economic litigation, civil litigation, judge, judicial protection, procedural guarantees, legislation.

ADVOKATNING IQTISODIY VA FUQAROLIK PROTSESSIDAGI ISHTIROKI: XORIJIY VA MILLIY QONUNCHILIK TAHLILI

Tolibbayeva Malika Ulmasjon qizi

O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi mustaqil izlanuvchisi.

E-mail: malikatolibbayeva@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada advokatning iqtisodiy va fuqarolik protsessidagi ishtiroki masalasi xorijiy davlatlar tajribasi hamda O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda advokatning protsessual maqomi, huquq va majburiyatlari, shuningdek taraflarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi roli keng yoritiladi. Xususan, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda advokat ishtirokining majburiyligi, uning sud jarayonidagi mustaqilligi va professional standartlari tahlil qilinib, milliy qonunchilikdagi mavjud normalar bilan qiyosiy o'rganiladi. Maqolada iqtisodiy va fuqarolik sud ishlarini yuritishda advokat ishtiroki sud qarorlarining qonuniyligi va adolatliligini ta'minlashda muhim omil ekanligi ilmiy asoslanadi. Shuningdek, amaldagi qonunchilikda uchrayotgan ayrim muammolar, jumladan, advokat vakolatlarining cheklanganligi yoki protsessual kafolatlarining yetarli emasligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish, advokatning protsessual imkoniyatlarini kengaytirish va sud himoyasining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: advokat, iqtisodiy sud protsessi, fuqarolik sud protsessi, sudya, sud himoyasi, protsessual kafolatlar, qonunchilik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I1Y2026N24>

Kirish. Iqtisodiy va fuqarolik sudlarida advokatning vakil sifatida qatnashishi qonun bilan kafolatlangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi [1]

(IPK)ning 61-moddasiga ko'ra, har bir shaxs (jismoniy yoki yuridik shaxs) sudda o'z ishini shaxsan yoki vakil orqali yuritishi mumkin, hatto taraflar shaxsan qatnashganda ham vakil olish huquqidan mahrum etilmaydi. Demak, qonun taraflarga iqtisodiy sudda malakali vakil – xususan, advokat orqali qatnashish imkoniyatini beradi.

IPK va Fuqarolik protsessual kodeksi [2] (FPK) vakil sifatida qatnashishi mumkin bo'lgan subyektlar doirasini belgilab, advokatlarni ham shulardan biri sifatida e'tirof etadi. Ya'ni, qonunchilikka muvofiq, advokatlar, tarafning qarindoshlari yoki boshqa ishonchli shaxslar vakil sifatida ishda qatnashishlari mumkin. IPK 61-moddaning va boshqa me'yorlarga binoan quyidagi shaxslar esa vakil bo'la olmaydi: to'liq muomala layoqatiga ega bo'lmagan shaxslar, sudyalalar, tergovchilar, prokuratura xodimlari va sud devoni xodimlari, shuningdek muayyan ishga doir mediatorlar va boshqalar. Bunday cheklovlar vakillikni suiiste'mol qilish yoki manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga qaratilgan.

Advokatning iqtisodiy sudda vakil sifatida ishtirok etish huquqi nafaqat protsessual kodekslarda, balki maxsus qonunlarda ham mustahkamlangan. Jumladan, "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi Qonunning [3] 4-moddasiga muvofiq, advokatning muayyan ishni yuritish vakolati advokatlik orderi bilan tasdiqlanadi. Order – bu advokatga belgilangan tartibda berilgan rasmiy hujjat bo'lib, unda u ma'lum bir ish bo'yicha vakillik qilishga vakolatli ekani ko'rsatiladi. Shu tariqa, amaldagi qonunchilik advokatga iqtisodiy va fuqarolik ishlarda ishtirok etishi uchun maxsus ishonchnoma talab etmaydi, balki advokatlik orderi yetarli hisoblanadi. Oliy sud Plenumi qarorlarida ham advokat vakilligining ahamiyati va huquqiy negizlari qayd etilgan bo'lib, ushbu qarorlar sudlar uchun qo'llanma vazifasini o'taydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Advokatning iqtisodiy va fuqarolik protsessdagi ishtiroki masalasi huquq nazariyasida keng muhokama qilingan bo'lib, ushbu masalaga oid ilmiy yondashuvlar xorijiy va milliy olimlar ishlarida turlicha talqin etilgan.

Xorijiy huquqshunos olimlar orasida advokatning sud protsessdagi roli va protsessual maqomini o'rganishga katta e'tibor qaratilgan. Jumladan, M. Kappelletti o'zining fuqarolik sud ishlarini yuritishda adolatga yetishish konsepsiyasiga bag'ishlangan ishlarida [4] advokat ishtirokini sud himoyasining samaradorligini ta'minlovchi asosiy kafolat sifatida baholaydi. Uning fikricha, advokat ishtirokisiz taraflarning protsessual tengligi to'liq ta'minlanmaydi. Bu borada A.Timoshenko [5] esa advokat professional ravishda ishonch bildiruvchi manfaatlarini himoya qilishi, protsessual huquqlarni nazorat qilishi va sud qarorlarining qonuniyligini ta'minlashda muhim rol ekanligini o'z asarida keltirib o'tgan. Zukkyerman [6] huquq tizimida fuqarolik protsessini isloh etish zaruratini belgilaydi va bu islohot faqatgina protsessual qoidalarini soddalashtirish bilan cheklanmasligi kerakligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, islohotlar jarayonida nizolarni hal qilishning samaradorligi va huquqqa kirish imkoniyatini oshirish uchun to'liq strategiya yaratish muhimdir. Bu tezkor sud mexanizmlarini joriy etish, xarajatlarni nazorat qilish va huquqiy xizmatlarga teng kirishni ta'minlashni o'z ichiga olishi kerak. Bu yondashuv advokatlarning protsessdagi rolini, qonunlarning aniq va samarali amal qilinishini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq degan xulosaga keladi. Shuningdek, o'zbek olimlaridan M.Rustambayev, B.Salomovlar [7] advokatlik faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini, F.Otaxonov [8] yuridik xizmat va advokaturaning o'zaro bog'liqligini, Z.Esanova, D. Habibullayev va F.Ibratovalar [9] iqtisodiy va fuqarolik sudlarida advokatning vakil sifatidagi

ishtirokining ayrim jihatlarini, G.Tulyaganova va S.Qodiraliyevlar [10] advokatlar tomonidan ko'rsatiladigan yuridik yordamlar tavsifini ma'lum darajada tadqiq etganlar.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy bilishning umumiy va maxsus huquqiy metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez metodlari orqali advokatning protsessual maqomi, huquq va majburiyatlari tizimli ravishda o'rganildi.

Qiyosiy-huquqiy metod asosida xorijiy davlatlarning iqtisodiy va fuqarolik sud ishlarida advokat ishtirokiga oid qonun normalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan solishtirib tahlil qilindi. Bu usul advokat faoliyatini tartibga solishdagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash imkonini berdi.

Muhokama. *Iqtisodiy va fuqarolik sud jarayonida advokat – vakilning vazifasi* tarafning huquq va manfaatlarini samarali himoya qilishdan iborat. Advokat da'vo arizasini tayyorlashda huquqiy asoslarni bayon etadi, dalillarni to'plab, ularni sudga taqdim etadi hamda muhokama davomida taraf nomidan chiqish qiladi. Shu bilan birga, advokat protsessual qoidalarga rioya qilishini ta'minlaydi, tarafning protsessual huquqlaridan to'liq foydalanishiga ko'maklashadi. Masalan, advokat da'vogar nomidan da'voni asoslab beradi, javobgar tomon vakili sifatida esa da'voni rad etish uchun zarur huquqiy dalillar keltiradi, shu orqali ishni xolis hal etilishiga yordam beradi. Advokatning ishtirokidagi ishlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, da'vogarlar o'z talablarini aniq va asosli qo'yadi, javobgarlar esa o'z e'tirozlarini dolzarb asoslar bilan bildiradi hamda dalillarni o'z vaqtida taqdim etadi – bu esa ishlarni qonunchilikda belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilishini ta'minlaydi. Demak, advokat ishda qatnashishi orqali sudya huquqiy jihatdan bahslarni to'g'ri baholashga va adolatli hal etishga zamin yaratadi.

Advokatning vakolatlari iqtisodiy protsessual qonunchilikda va maxsus qonunlarda batafsil belgilangan. IPK va FPKda sudda ish yuritish vakolati vakilga (shu jumladan advokatga) ishonch bildiruvchi shaxs nomidan barcha protsessual harakatlarni amalga oshirish huquqini beradi. Boshqacha aytganda, advokat vakil sifatida ishonch bildiruvchi – taraf nomidan suddagi deyarli barcha harakatlarni bajarishi mumkin: da'vo arizasi yuborish, raddiyalar taqdim etish, dalillarni so'rash va taqdim etish, guvohlarga savollar berish, iltimosnomalar berish, qarorlarga shikoyat qilish va h.k. Advokatning vakolati tegishli tartibda rasmiylashtirilgan order bilan tasdiqlangani uchun, u protsessning barcha ishtirokchilari bilan teng huquqlarga ega deb hisoblanadi. Shu orqali advokat sud muhokamasida to'laqonli protsessual ishtirokchi maqomiga ega bo'ladi va mijozi himoyasi uchun zarur bo'lgan barcha harakatlarni amalga oshira oladi.

Shuni ta'kidlash joizki, qonunchilik advokatga umumiy tarzda keng vakolatlar bergan bo'lsa-da, ayrim muhim protsessual harakatlar uchun maxsus vakolat (ishonchnoma) talab etiladi. Jumladan, IPK va FPKdagi tegishli normalarga muvofiq quyidagi harakatlar faqat ishonch bildiruvchi shaxs tomonidan beriladigan alohida ishonchnomaga asoslanib amalga oshirilishi mumkin: da'vo arizasini imzolash, da'vodan to'liq yoki qisman voz kechish, da'vo talablarini kamaytirish yoki oshirish, kelishuv bitimi tuzish, taraflarga tegishli pul mablag'larini olish, yuqori instansiya sud qarorlariga shikoyat qilish va boshqalar. Masalan, da'vo arizasini advokat imzolashi uchun unga ishonch bildiruvchi tomonidan shunday huquq berilgan notarial ishonchnoma ilova qilinishi shart (agar da'voni bevosita da'vogarning o'zi imzolamagan bo'lsa). Xuddi shu kabi kelishuv bitimi tuzish yoki da'vodan voz kechish ham advokatga alohida yozma vakolat berilgandagina amalga oshishi mumkin. Bu talablarning maqsadi – protsessda eng mas'uliyatli, ishonch bildiruvchi huquqlariga daxl qiluvchi harakatlarni faqat uning roziligi

bilan amalga oshirishni ta'minlashdir. Binobarin, advokat odatdagi holatlarda order asosida tarafning barcha huquqlaridan foydalanishi mumkin bo'lsa, ayrim muhim protsessual qarorlarda u ishonch bildiruvchidan olingan ishonchnomaga suyanadi.

Advokatning ishdagi o'rni va ahamiyati uning yuqorida ta'riflangan vazifa va vakolatlaridan kelib chiqadi. Advokat professional yuridik bilim va tajribaga ega shaxs sifatida, iqtisodiy nizolarda taraflar manfaatini malaka bilan himoya qiladi. Bu bir tomondan sudga dadillarni aniqlashda ko'maklashsa, ikkinchi tomondan taraflarning huquq va majburiyatlari to'g'ri amalga oshirilishiga kafolat bo'ladi. Advokat sudda vakil sifatida ishtirok etib, da'volarning ko'rib chiqilishi sifatini oshiradi, chunki u protsessual tartibni yaxshi biladi va tarafning pozitsiyasini to'g'ri taqdim etadi. Shu tariqa, iqtisodiy sud ishlarida advokatning ishtiroki odil sudlov samaradorligini oshiradi, taraflar o'rtasidagi mojarolarning qonuniy hal etilishiga xizmat qiladi va sud qarorlarining adolatli chiqishiga ta'sir ko'rsatadi.

Amaldagi iqtisodiy va fuqarolik sud amaliyotida advokatning vakil sifatida ishtirok etishi bo'yicha ayrim muammo va bahsli holatlar kuzatilgan. Eng ko'p tarqalgan muammolardan biri – advokat vakolatini tasdiqlashdagi turlicha yondashuvlardir. Qonunchilikda order advokat vakolatini tasdiqlovchi yetarli hujjat deb belgilanganiga qaramay, ayrim holatlarda sudlarda va qarshi taraf vakillarida noto'g'ri tushuncha va talqinlar uchragan. Masalan, ba'zi sud amaliyotida advokatda ishonchnoma bo'lmasa, u faqat "himoyachi" sifatida ishtirok etib, to'liq vakillik huquqiga ega emas, degan qarashlar bo'lgan. Shuningdek, ishonchnomasi yo'q advokat taraf nomidan sudda tushuntirish berishga yoki qarshi tarafga savol berishga haqli emas, degan e'tirozlarni ham uchratish mumkin. Bunday yondashuvlar amalda qonun normalari va advokatning maqomiga to'g'ri kelmaydi, lekin ayrim sudlarga murojaat etayotgan taraflar yoki hatto ayrim sudyalar o'rtasida shunday qarash mavjud bo'lgan. Bu holatlar advokatlarning faoliyatiga asossiz to'siq yaratib, tarafning huquqlarini cheklashi mumkin.

Yana bir amaliy muammo – advokat vakolatlarini hujjat bilan tasdiqlash masalasidagi farqlardir. Mazkur yo'nalish bevosita yuqoridagi tushunmovchilik bilan bog'liq: qonun bo'yicha order yetarli bo'lsa-da, ba'zi tashkilot yoki shaxslar advokatdan bevosita ishonchnoma taqdim etilishini talab qilishadi. Masalan, bank yoki boshqa muassasa manfaatida ish olib borayotgan advokatdan ayrim sudyalar ish boshlanishidayoq notarial tasdiqlangan ishonchnomani ko'rsatishni so'ragan holatlar bo'lgan. Vaholanki, IPK 62-moddasi va FPK 68-moddasida advokatning vakolatlari qonunchilikda belgilangan tartibda tasdiqlanishi lozimligi qayd etilib, bu masala maxsus qonunlarga havola qilingan. Shu bois, ishonchnoma talab qilish amalda order instituti mohiyatiga ziddir. Bunday bahslar va turlicha yondashuvlar ayrim sud ishlari cho'zilishiga, orderning huquqiy qiymati tushirilib yuborilishiga olib keladi.

Iqtisodiy sudlarning turli hududlardagi amaliyotida bir xil masalaga turlicha yondashuv kuzatilgan hollar ham mavjud. Masalan, ba'zi sudlar advokatning orderini qabul qilar ekan, uning barcha vakolatlarini tan oladi va protsessni olib boradi. Boshqa ba'zi sudlarda esa, order borligini tan olgan holda ham, muayyan harakatlar (jumladan, da'vo arizasini imzolash, apellyatsiya shikoyati kiritish) uchun ishonchnoma taqdim etilishini talab qilishadi. Bunday nomutanosiblik, asosan, qonun normalarini turlicha talqin qilish va ilgarigi sud amaliyoti tajribasi bilan bog'liq.

Boshqa bir muammo, garchi kamroq kuzatilsa-da, advokatning protsessual huquqlaridan to'liq foydalanishiga to'siqlardir. Masalan, ba'zi iqtisodiy sud muhokamalarida advokatga so'z bermaslik, unga savol berish imkonini cheklash kabi holatlar yuzaga kelgani

haqida xabarlar mavjud. Bu holatlar, odatda, yuqorida bayon etilgan “advokat faqat himoyachi, vakil emas” kabi noto‘g‘ri qarashlarning amaliy ifodasi bo‘lib, natijada advokat ishtirok etib turib, tarafning ayrim huquqlaridan foydalana olmasligiga olib keladi. Chunki qonunga ko‘ra advokat protsessning barcha ishtirokchilari bilan teng huquqlarga ega va ishonch bildiruvchi nomidan yoki uning manfaati uchun barcha kerakli harakatlarni qonuniy tarzda amalga oshirishga haqlidir. Shu bois, bu kabi to‘siqlar huquqni qo‘llash amaliyotini yaxshilash orqali bartaraf etilishi lozim.

Advokatning sud ishlarida vakil sifatida qatnashishi har bir davlatning protsessual qonunchiligiga bog‘liq ravishda turlicha tartibga solingan. O‘zbekiston qonunchiligida, yuqorida qayd etilganidek, advokatlik orderi vakolatni tasdiqlash uchun kifoya qiladi va advokat deyarli barcha protsessual harakatlarni amalga oshirishi mumkin (ayrim istisnalar bilan). Xorijiy tajribaga nazar solsak, qator mamlakatlarda protsessual vakillik instituti o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Masalan, Rossiya Federatsiyasida arbitraj sudlarida vakil sifatida qatnashish uchun *alohida rasmiy ishonchnoma talab etiladi*. Rossiyaning Arbitraj protsessual kodeksi [11] 61-moddasiga ko‘ra, arbitraj sudda ish yuritish bo‘yicha vakolatlar belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan tasdiqlanishi lozim. Advokatning o‘ziga xos “order” tushunchasi bor bo‘lsa-da, u faqat jinoyat ishlarida himoyachi sifatida o‘tishi mumkin, fuqarolik va iqtisodiy ishlar uchun esa baribir ishonchnoma talab etiladi.

AQSH [12] va Buyuk Britaniya [13] kabi anglo-sakson huquq tizimiga mansub mamlakatlarda, odatda, tarafning sudda vakili faqat litsenziyalangan advokat (yuriskonsult) bo‘lishi mumkin. Masalan, AQShda shaxs o‘zi istisno holatlardagina sudda o‘zini o‘zi himoya qilishi mumkin, lekin boshqalarning nomidan faoliyat yuritish uchun albatta advokatlik litsenziyasi talab etiladi. Bunda ishonchnoma konsepsiyasi faqat moliyaviy yoki vakolatni umumiy berishga oid holatlarda mavjud; sud jarayonida esa advokat sudga o‘zini tarafning vakili sifatida rasman taqdim etishi orqali vakillik huquqini oladi. Ya’ni, anglo-sakson tizimida advokat vakil sifatida qatnashishi sud oldidagi majburiyatlar orqali tartibga solinadi, ishonchnoma kabi hujjatlarga emas.

Qozog‘iston [14] va Qirg‘iziston [15] kabi qo‘shni mamlakatlar tajribasi O‘zbekistonga yaqin, chunki ular ham postsovet protsessual tizim asosida ish yuritadi. Qozog‘istonning joriy Fuqarolik protsessual kodeksida vakillikni tasdiqlovchi hujjat sifatida ishonchnoma talab qilinadi va unda ba’zi vakolatlar alohida ko‘rsatilishi shart etib belgilangan. Lekin Qozog‘istonda ham advokat vakolatini tasdiqlovchi orderdan foydalanish amaliyoti bor, faqat u order bilan birga ishonchnoma taqdim etishni istisno etmaydi – aksincha, order advokatning maqomini ko‘rsatsa, ishonchnoma mijoz bilan munosabatini ko‘rsatadi.

Natijalar. Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etish va advokatning iqtisodiy va fuqarolik sud ishlaridagi rolini mustahkamlash maqsadida quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Qonunchilikka aniqlik kiritish va uni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish: IPK va FPKni takomillashtirib, unga vakilning (jumladan, advokatning) protsessdagi maqomi va huquqlarini ochiq bayon etuvchi o‘zgartishlar kiritish lozim. Masalan, IPKning 41-moddasiga vakilni ishda ishtirok etuvchi shaxs sifatida qo‘shish, shuningdek, vakolatlarni amalga oshirish shartlarini bir xil talqinda yozish taklifi qo‘llab-quvvatlanadi. Bunda IPK va FPK o‘rtasidagi barcha kelishmovchiliklarni bartaraf etish,

xususan “advokat ishonchnomasiz amalga oshiradigan huquqlar” va “ishonchnoma talab etiladigan harakatlar” bo’yicha normalarni aniq bir xillashtirish zarur. Normativ uyg’unlashtirish orqali sudlar va taraflar uchun qoidalar tushunarli va birma-bir ravon bo’ladi.

2. Oliy sud tushuntirishlari va huquqni qo’llashni birxillashtirish: Oliy sud Plenumi darajasida yoki huquqiy tushuntirish shaklida advokatning vakolatlari bo’yicha yangilangan qaror qabul qilinishi maqsadga muvofiq. Unda aniq tarzda: *“advokatlik orderi vakillik vakolatini tasdiqlovchi hujjat bo’lib, ishonchnoma talab qilinmaydi, faqat protsessual kodekslarda sanab o’tilgan ayrim harakatlar uchun ishonchnoma kerak bo’lishi mumkin”* degan mazmundagi qoidani bayon etish lozim. Bunday umumiy ko’rsatma barcha sudlar uchun majburiy bo’lib, amaliyotda turlicha talqinlarni yo’q qiladi. Shu bilan birga, Oliy sud o’zining iqtisodiy sudlarga doir qarorlarida advokat ishtirokini har doim qo’llab-quvvatlashi va uning teng huquqliligini ta’kidlab borishi darkor. Bu sudyalarning ongida ham bir xil tushunchani shakllantirishga xizmat qiladi.
3. Advokatlik orderi tizimini takomillashtirish: Amalda advokatlar Advokatlar palatasi tomonidan berilgan maxsus blank orderlardan foydalanishadi. Orderning elektron reyestrini yaratish, uni sudlar bilan integratsiya qilish taklif etiladi. Masalan, elektron Ye-SUD tizimida advokatlar uchun alohida ro’yxatdan o’tish va order ma’lumotlarini kiritish imkoniyatini yaratish mumkin. Shu orqali sudyalarning advokatdan qo’shimcha hujjat talab qilmasdan, elektron tizim orqali uning orderini va vakolat doirasini tasdiqlay oladilar. Bu bir tomondan qog’ozbozlikni kamaytiradi, ikkinchi tomondan esa order suiiste’mol qilinishi yoki soxtalashtirilishi xavfini pasaytiradi.
4. Sudyalarning va ishtirokchilarning uchun ma’rifiy ishlarni oshirish: Advokat vakolati va vakillik instituti bo’yicha sudyalarning, sud xodimlari va hatto keng jamoatchilikka mo’ljallangan qo’llanmalar va seminarlar o’tkazish zarur. Sudyalarning malaka oshirish kurslari doirasida mazkur mavzu bo’yicha amaliy mashg’ulotlar tashkil etish, odatdagi xato talqinlar va ularning qonuniy yechimlarini muhokama qilish foydali bo’ladi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari va boshqa foydalanuvchilarning uchun Adliya vazirligi yoki Advokatlar palatasi tomonidan broshyuralar chiqarilib, advokat qanday holatda qanday hujjat bilan ish tutishi kerakligi tushuntirilsa, ular ham o’z haq-huquqlarini yaxshi anglab, sud jarayonida to’g’ri talab qila oladilar.
5. Vakolatli harakatlar cheklovini qayta ko’rib chiqish: Qonunchilikni takomillashtirish nuqtai nazaridan bahs qilish mumkin bo’lgan mavzu – advokatning ayrim harakatlari uchun ishonchnoma talab etilishi masalasidir. Amalda hozircha da’vo arizasini imzolash, sulh tuzish, da’vodan voz kechish kabi harakatlar uchun alohida ishonchnoma talab etiladi. Lekin, nazariy jihatdan, advokatga beriladigan orderning o’zida yoki shartnomada ishonch bildiruvchi bunday vakolatlarni berishi mumkinligi qayd etilsa, notarial ishonchnomaga ehtiyoj qolmasligi mumkin. Masalan, yuridik yordam ko’rsatish shartnomasini imzolangan ekan, ishonch bildiruvchi unga muayyan protsessual harakatlarni amalga oshirish huquqini ham berayotgani ko’rsatilishi mumkin. Qonunchilikda shunday mexanizm joriy etilsa, protsess yanada osonlashadi – taraflar notariusga borib ishonchnoma qilish o’rniga, advokat bilan shartnomaning o’zi orderga ilova bo’lib xizmat qiladi. Albatta, bu masala bahsli bo’lishi mumkin va har

ikki tomonning manfaatlarini hisobga olish kerak, biroq shu yo'nalishda muhokamalar olib borish advokat vakilligining kelgusidagi rivoji uchun muhim.

6. Xorijiy tajribadan o'rganish va tatbiq etish: Yuqorida ko'rib chiqilgan xorijiy tajriba asosida, tegishli tartiblarning ijobiy jihatlarini qabul qilish mumkin. Masalan, faqat litsenziyalı advokatlar iqtisodiy sudlarda ishtirok etishi talabini joriy etish haqidagi munozarani ko'rib chiqish mumkin. Ya'ni, muayyan yirik summadagi yoki nizo murakkab bo'lgan ishlarda advokat ishtirokisiz taraflar sudda qatnasha olmasligi tortishuvchanlik prinsipini ishga tushiradi.

Xulosa. Iqtisodiy va fuqarolik sud ishlarida advokatning vakil sifatidagi ishtiroki nazariy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham juda katta ahamiyatga ega. Mavjud qonunchilik asosan yetarli huquqiy kafolatlarni bergan bo'lsa-da, uni amalda to'g'ri qo'llash va ba'zi jihatlarini takomillashtirish talab etiladi. Yuqorida keltirilgan takliflarni amalga oshirish orqali advokat vakilligining samaradorligini yanada oshirish, iqtisodiy sudlarda odil sudlovni mustahkamlash mumkin. Zamon talablari va yuridik amaliyot rivoji shuni ko'rsatmoqdaki, advokat instituti qancha kuchli va tartibga solingan bo'lsa, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari shunchalik ishonchli himoya qilinadi. Advokatning vakil sifatida sud jarayonlarida faol ishtirok etishi yesa aynan shunday himoyaning muhim tarkibiy qismidir.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Иқтисодий процессуал кодекси.
2. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик процессуал кодекси.
3. Ўзбекистон Республикаси “Адвокатлик фаолиятининг кафолатлари ва адвокатларнинг ижтимоий ҳимояси тўғрисида”ги Қонуни.
4. Cappelletti M. & B. Garth — Access to Justice – Oxford Academic / NCJRS Virtual Library. <https://www.ojp.gov/ncjrs/virtual-library/abstracts/access-justice-vol-2-promising-institutions?>
5. Тимошенко А. А., Хашаева Д. А. ПРОЦЕССУАЛЬНАЯ РОЛЬ АДВОКАТА В ГРАЖДАНСКОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ // Научные высказывания. 2024. №9 (56). С. 70-73. УРЛ: <https://nvzhournal.ru/artisles/ПРОЦЕССУАЛЬНАЯ РОЛЬ АДВОКАТА В ГРАЖДАНСКОМ СУДОПРОИЗВОДСТВЕ>
6. Zuckerman A. A. S (ed.), Reform of Civil Procedure: Essays on 'Access to Justice' — Oxford University Press (Clarendon Press, 1995). https://academic.oup.com/book/50736?_cf_chl_tk=7zlPSG_hdQPPMqrUk99ZAQHWiGqbNYIpCE.o0MOJoh4-1767018705-1.0.1.1-ж82д856ХОп1ВслоКОдвомаКЕжПмЙв9и6ГЙБХРВвТЗКА
7. Ўзбекистон Республикасида адвокатлик фаолияти. Муаллифлар жамоаси // Масъул муҳаррирлар М.Х.Рустамбоев., Б.Саломов. Дарслик. ИИ жилд. – Т: Консаудитинформ нашриёти, 2007. – 469 б.
8. Отахонов Ф.Х. Юридик хизматнинг назарий-ҳуқуқий муаммолари Монография. – Т.: 2019. – 290 б.
9. Иқтисодий процессуал ҳуқуқ. Дарслик. Муаллифлар жамоаси // Масъул муҳаррир З.Н.Эсанова. – Т: ТДЮУ нашриёти, 2018. – 518 б.
10. Қодиралиев С.Б. Адвокатура институтининг ташкилий-ҳуқуқий масалалари. Ўқув қўлланма. – Т: ТДЮУ нашриёти, 2023. – 193 б.
11. https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_37800/
12. https://www.govinfo.gov/content/pkg/USCODE-2023_title28/html/USCODE-2023-title28-partV-chap11_1

13. <https://www.justice.gov.uk/courts/procedure-rules/civil>
14. <https://cbd.minjust.gov.kg/3-29/edition/1261675/ru>
15. <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1500000375>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).